



XALQ DEPUTATLARI FARG'ONA VILOYATI DANG'ARA TUMAN KENGASHI QARORI

2023 - yil «14» - avgust

VI-81-88-11-155-K/23

Dang'ara tuman hokimligi

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokururaturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosi Dang'ara tumani bo'limi tomonidan 2023-yilning 6 oyi davomida amalga oshirilgan ishlar to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 11-noyabrdagi "Sud xujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6118-sonli Farmoni ijrosi yuzasidan Majburiy ijro byurosi Dang'ara tumani bo'limi boshlig'i v.v.b D.Shakirovning axboroti eshitilib, deputatlar tomonidan bildirilgan takliflar, fikr va mulohazalarni eshitib, "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari Dang'ara tumani Kengashi,

QAROR QILADI:

1. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokururaturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosi Dang'ara tumani bo'limi tomonidan 2023-yilning 6 oyi davomida amalga oshirilgan ishlar to'g'risida bo'lim boshlig'i v.v.b D.Shakirovning axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Majburiy ijro byurosi Dang'ara tumani bo'limi boshlig'i v.v.b D.Shakirovga:

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-noyabrdagi PF-6118-sonli Farmonida sud hujjatlarini ijro etish tizimini takomillashtirish yuzasidan belgilangan muhim vazifalar ijrosini ta'minlash, qo'shimcha chora-tadbirlar belgilash;

- sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish samaradorligini oshirish, belgilangan oylik undiruv rejalarini ijrosini ta'minlash;

- undiruvni garov mulklariga qaratish bilan bog'liq ijro hujjatlari bo'yicha garov mulklarini o'z vaqtida xatlash, savdoga chiqarish va kelib tushgan pul mablag'larini tegishli tartibda taqsimlash choralarini ko'rish;

- uzoq yillar davomida depozitlarda yig'ilib qolgan pul mablag'larini egasiga o'tkazish yoki qonunchilikda belgilangan tartibda davlatga o'tkazish choralarini ko'rish;

- banklar bilan bog'liq ijro hujjatlari, jumladan banklardan davlat bojlarini undirish hamda banklar foydasiga qarzdorliklarni undirish to'g'risidagi ijro hujjatlarining ijrosini nazoratga olish;

- murojaatlarni ro'yxatga olish va ko'rib chiqish, vajlarini to'liq o'rganish, hal

qilinishi ustidan nazorat olib borish, qabullarni tashkil etishga mas'uliyat bilan yondashish;

- davlat bojlari, yuridik va jismoniy shaxslarning soliq qarzdorligi, sudlarning qarorlariga asosan ma'muriy, jinoiy jarimalar, IIB YHXB va boshqa vakolatli organlarning qaroriga asosan ma'muriy jarimalarni o'z vaqtida undirish;

- byuroning faoliyatida oshkorlik ta'minlash, fuqarolarning huquqiy madaniyatini oshirish borasida ommaviy axborot vositalari imkoniyatlaridan keng va unumli foydalanish ishlarini samarali tashkil etish vazifalarni bajarish topshirilsin.

3. Xalq deputatlari Dang'ara tumani Kengashi deputatlariga o'z faoliyati davomida vakillik organlari bilan bir qatorda, sud, prokuratura, ichki ishlar, adliya organlari bilan hamkorlikda muammoli masalalarning yechimini topish bo'yicha hamkorlik o'rnatish topshirilsin.

4. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Dang'ara tumani Kengashining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha doimiy komissiya raisi R.Yakubjanov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



Sh.Tojixakimov